



## CHET TILINI O`QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Napasova Baxora Boymirzayevna

O`qituvchi,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7965010>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 23<sup>th</sup> May 2023

Online: 24<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

Zamonaviy ta'lim, innovatsion texnologiyalar, uslub, metod, mahorat, talaba, o`qituvchi.

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada ta'lim jarayonida innovatsion metodlar va texnologiyalar foydalanish to'g'risida mulohaza qilinadi. Ta'lim tizimida xorijiy tillarni o`qitish bo'yicha qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar haqida fikr yuritiladi. Chet tilini o`qitishdagi ayrim metodlar haqida so'z borib, misollar bilan dallanadi. Zamnoviy texnikalardan foydalanib dars o'tishning samaradorligi xususida so'z boradi.*

### KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda ta'lim tizimida so'nggi yillarda barcha ta'lim bosqichlarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning asosiy mazmuni ta'lim tizimini yangilash hamda yanada rivojlantirishga qaratilgandir. Shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda oliy ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilardan tortib, bog'cha tarbiyachilarigacha ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, mazkur jarayonga innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish asosiy masala sifatida qaralmoqda va xorijiy tajribalarni o'rGANIB, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bunday vazifalarni amalga oshirishda pedagogi zimmasiga ta'lim-tarbiya mazmuniga bog'liq innovatsion ta'lim texnologiyalarini tanlash, mavzuni yoritib berishda turli maqsadli mashg'lotlar bilan ishslash, texnologik xaritalarni loyihalash, ularda belgilangan o'quv maqsadlarini amalda qo'llay olish, talabalarning yosh, psixologik xususiyatlariga asosan talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil eta olish asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'lim tizimida innovatsion texnogiyalardan foydalanish natijalarini ingliz tilini fanini o`qitish misolida o'rGANAMIZ. Bu borada qator muammolar mavjud. Amaliyotga joriy qilinayotgan pedagogik texnologiyalar to'laqonli natija bermayaptimi? Hozirgi kunda chet tilini o`qitish jarayoni o'n yillar oldingi o`qitish tizimidan mutloqo farq qilinib, yangicha xalqaro chet tilini o`qitish texnikasi amaliyotga keng ko'lamlı ravishda tadbiq etila boshlandi. Bu metodika ta'lim tizimida sezilarli natijalarga eishilgan bo'lsada, hali xalqaro ta'lim talablariga raqobotbardosh kadrlarni tayyorlashda yechimini ko'tib turgan qator kamchiliklar mavjud. Chet tili bilimini baxolash xalqaro tizimida belgilangan me'yorlar: o'qish, yozish, gapishtirish, tinglash kabi ko'nikmalarni shakllatirishda yuzaga kelayotgan murakkabliklarning yechimi qanday? Talaba yodlagan grammatik qoidalarni, so'zlarni, birikmalarni og'zaki



nutqda qo'llashdagi passivlik darajasini aktivlikka o'zgartirishda duch kelayotgan qiyinchiliklar qanday yo'lar qo'llanilmoqda? Bunday muammolarning albatta o'z yechimini ko'tmoqda. Bunday ta'lim tizimida standart o'quv va test topshiriqlari yoki so'z boylikni oshirish bilangina amalga oshirib samarali natijaga erishib bo'lmaydi. Turli rasmlarni tasvirlab aytib berish, hikoyani qayta aytib berish kabi bir qador mashg'ulotlar talabalar tomonidan axborotni o'zlashtirishga qaratiladi. Bunday mashg'ulotlar davomida talaba mavzuni aniqlashi, uni ta'riflashi, qayta ishlashi, mazmunini gapirib berishi, mohiyatini tushuntirib berishi hamda ajratib ko'rsatib berishi talab etiladi.

Klaster tuzish, Venn diagrammasi, xorijiy tildan ona tiliga tarjima yoki onatilidan xorijiy tiliga tarjima qilish – produktiv, qisman izlanishli hamda kreativlini talab qiladigan tushuntirish bosqichi talaba mavzunu umumlashtirib taxlil qiladi, qayta ishlaydi, sinonim so'zlardan foydalanib qayta aytib beradi va bu orqali mustaqil dalillar keltirib o'z fikrini himoya qilish talab etiladi.

Amaliyot bosqichida talaba mavzu mazmunini moslashtirishi, qayta ishlashi, loyihalash, modellashtirish, qayta aytib berish jarayonlarida qatnashadi. Klaster tuzish, aqliy hujum, og'zaki javob, chizmali organayzerlar, Pinboard texnikasi, Insert usuli reproduktiv, produktiv, qisman izlanishli, kreativ darajani ta'minlashga xizmat qiladigan qator amaliyotlar ham alohida o'rin tutadi. Ta'lim jarayonida talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan baravar rivojlantirib borish talab etiladi. Og'zaki nutiqda so'zlarni faol qo'llay olish doimiy amaliy jarayon bilan bog'liq tushunchadir. Shuning uchun ko'pchilik til o'rganuvchilarining passiv ko'nikmalari aktiv ko'nikmalarga nisbatan natijalar yaxshiroq ko'rsatgich beradi. Bu borada "Blum toksonomiysi" ni haqida fikr yuritish joiz. Blum toksonomiysi - o'quv maqsadlarini aniqlash va shu asosda mashg'ulotlarni tashkil etish, talabalarning mavzu maqsadidan kelib chiqqan holda, rejalashtirilgan natijaga to'laqonli erishishlariga qaratilgan. O'quv maqsadlarini mashg'ulotning didaktik maqsadlariga muvofiq belgilanishi ta'lim samaradorligini aniqlash va mavjud kamchiliklarga barham berilishiga qaratiladi. Amerikalik o'quv-psixolog Benjamin Samuel Bloom tomonidan ishlab chiqilgan mazkur toksonomiyada Bloom fikrlash qobiliyatlarini tanqidiy fikrlash va mulohaza yuritish miqdoriga qarab tasniflashning yo'lini yaratdi. Ushbu toksonomiya o'z ichiga bilish, tushunish, amaliyotga qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, baholash kabilarni mujassamlashtirgan. Aynan Blum toksonomiyasini qo'llagan holda o'qitishda erishili mumkin bo'lgan yutuqlarni ikkiga bo'lish mumkin: birinchisi – o'quv maqsadlarini aniq va natijaga qaratilgan holda belgilanishi; ikkinchisi – talabalarda yegallaniladigan nazariy bilimlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga erishish. Aslida chet tilini o'qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixni o'z ichiga oladi. Bu vaqt ichida chet tilini o'rgatish metodikasi bo'yicha olimlar tomonidan juda ko'plab fikrlar bildirilgan. Akademik L.V.Shcherbaning fikricha bu amaliy masalani hal qiladi, umumiy va xususiy tilshunoslikka asoslanadi.

Hozirgi kunda chet tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa tinglab tushunish ko'nikmasining eng asosiy qo'roli hisoblandi. Bunday texnikalar o'rganuvchiga bir vaqtning o'zida so'zlarning talaffuzi, yozilishi va tarjimasi o'rganish imkoniyatini beradi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish eng samarali usullardan hisoblanadi. Aqilli texnikalar video roliklarni, dialoglar, kinolar hamda



eshittirishlarni eshitish va ko`rish imkoniyatini beradi. Bu esa o`z navbatida eshitish ko`nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O`rganuvchi ham mustaqil qo`chimcha materillardan foydalanib, chet tilini bilish ko`nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo`ladi. Dars jarayonini xilma-xilligini ta`mirlaydi va darsning sifat - mazmunni boyitishga ko`maklashadi.O`rganilgan yangi so`zlarni telefon diktafoniga yozdirib, o`z talaffuzini o`zi tahlil qilish, ingliz tilida so`zlashuvchilarning tallafuziga taqlid qilish orqali nutq ko`nikmalarini o`stirib borish metodlarini qo`llash muhumdir.

Ta`lim jarayonida o`tkaziladigan treninglarda nutq ko`nikmalarini shakillantirishga va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga yatarli darajada e`tabor berilishi kerak.Bundan tashqari ta`limda har bir darsning muvaffaqiyati ko`p jihatdan mashg`ulotni to`g`ri tashkil etilishiga bog`liq.

### XULOSA

Chet tillarni o`qitishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.Texnologiyalardan foydalanish talabalar uchun ma`lumotni mustaqil ravishda o`zlashtirish imkoniyatini beradi.To`g`ri talaffuz va ingliz tilida so`zlashuvchilar muloqotini tinglash, online amaliy muloqotga kirishish imkoniyatini beradi.Til o`rganishda texnologik vositalarning o`rni beqiyosdir.Barcha ta`lim muassalarida darslarni samaradorligini oshirishda zamonoviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish muhimdir.Innovatsion metodlardan foydalanish bugungi kun talabi va dars jarayonida yaxshi samaradorlikka erishishning kalitidir.

### References:

1. N.Q.Xatamova, M.N.Mirzayeva. "Ingliz darslarida qo`llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo`llanma), Navoiy , 2006, 40 bet
2. Балан Д.В. Связь между темпераментом и трудностями в преподавании современной молодежи. – Минск: ЛУЧ, 2021. С.112.
3. Микишева Т.В. Основные проблемы в преподавании. – М.: [Новое слово в](#)
4. Хурулбоев, Ш. А., Нишонов, И. А., Мамаджонов, А. В., & Абдувоитов, Р. А. (2020). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ОНЛАЙН ЎҚИТИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ ВА ИСТИҚБОЛИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 8).